

LIRO-EPIK ASARLARDA IFODALANGAN MAVZULAR VA ULARNI TAHLIL QILISH METODIKASI

Munisa Toshtemirova

Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası 2-bosqich magistranti

Toshtemirovamunisa48@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada liro-epik asarlarda ifodalangan asosiy mavzular hamda ularni tahlil qilish metodikasi yoritiladi. Tadqiqot davomida liro-epik asarlarning mazmuniy xususiyatlari, badiiy-estetik jihatlari va ularni o'rganishda qo'llaniladigan samarali tahlil usullariga e'tibor qaratiladi. Maqola adabiyot ta'limi jarayonida liro-epik asarlarni o'qitish va tahlil qilishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Liro-epik asarlar, mavzu, obraz, badiiy tahlil, metodika, adabiyot ta'limi, janr xususiyatlari, lirika va epika uyg'unligi, syujet, g'oya.

ТЕМЫ, ОТРАЖЁННЫЕ В ЛИРО-ЭПИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ, И МЕТОДИКА ИХ АНАЛИЗА

Муниса Тоштемирова

Студент 2 курса магистратуры, кафедра узбекского языка и литературы, факультет языков, Самаркандский государственный педагогический институт

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные темы, отражённые в лиро-эпических произведениях, а также методика их анализа. В ходе исследования внимание уделяется содержательным и художественно-эстетическим особенностям лиро-эпических произведений и эффективным методам их изучения. Статья может служить методической основой при обучении и анализе лиро-эпических произведений в процессе преподавания литературы.

Ключевые слова: Лиро-эпические произведения, тема, образ, художественный анализ, методика, преподавание литературы, жанровые особенности, единство лирики и эпики, сюжет, идея.

THEMES EXPRESSED IN LYRIC-EPIC WORKS AND METHODS OF THEIR ANALYSIS

Munisa Toshtemirova

*2nd year master's student, Department of Uzbek Language and Literature,
Faculty of Languages, Samarkand State Pedagogical Institute*

Annotation: *This article examines the main themes expressed in lyric-epic works and the methodology of their analysis. Special attention is given to the content-related and artistic-aesthetic features of lyric-epic works, as well as effective methods of studying them. The article serves as a methodological basis for teaching and analyzing lyric-epic works in literature education.*

Keywords: *Lyric-epic works, theme, character, literary analysis, methodology, literature education, genre features, unity of lyric and epic, plot, idea.*

KIRISH

Adabiyot oddiy so'zga hayotbaxsh qudrat ato etib, insoniyatning eng nozik tuyg'ularini harakatlantiradi, ko'ngil atalmish sirli va mo'jizakor dunyoni taftish qiladi, olam va odamning mohiyati, ularning o'zaro munosabatlarining sabab va oqibatlari, yashash mezonlari bilan tanishtiradi. Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog'on etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, ma'naviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob o'qish, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Kishida badiiy asarni to'g'ri anglash va ta'sirlanish fazilati adabiy asar o'qish bilan o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerakki, umummilliy miqyosda bu yumush faqat maktab adabiy ta'limi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni, adabiy ta'lim vositasida maktabni bitirgan o'quvchida badiiy asarni o'qish va anglash bo'yicha muayyan tushunchalar shakllantirilishi, badiiy tahlilning ilk ko'nikmalari yuzaga keltirilishi kerak.

Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatli chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham o'ziga xos o'rin tutadi. Chuqurroq diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotganligi ko'zga tashlanadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. To'g'ri, har xil tur va janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi, usullar tizimi ma'lum darajada o'zgarishi aniq.

Munosabat yo'sini, nuqtayi nazari esa har qanday ilmiy-ijodiy faoliyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiy asarning turi va janri nafaqat bitikning qurilishi yo'sini va ifoda tarziga, balki muayyan asarda foydalaniladigan so'zlarning tabiatiga ham ta'sir qilishi to'g'risida amerikalik adabiyotshunos Genri A. Verkler o'zining "Hermenevtika" asarida: "Asarning janri muallif niyatiga ko'ra ushbu asar qanday tushunilishi kerakligini belgilab beradi. She'riy asar ustida ishlayotgan muallif so'zlarni nasrdagidan tamomila o'zgacha yo'sinda ishlatadi. Poetik so'zni nasriy sochma so'z kabi talqin etishga urinishi uning ma'nosini buzishdir. Nasrda o'z ma'nosidagi so'zni, she'riyatda esa, majoziy tilni ishlatish ustuvorlik qiladi" deb yozadi.

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M.A.Ribnikova: "Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'ni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfda o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi". Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi.¹⁰ Prof. Q.Yo'ldoshevning yozishicha, "turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi". Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, "asarlarni tur va janr xususiyatlarga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi".

Asarni tahlil qilishda uning turi va janrini aniqlash muhim ekanini ta'kidlash bejiz emas. Chunki har bir adabiy tur va janr matnni anglashda o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Lirik asarda asosan tuyg'u va kechinmalar yetakchi bo'lsa, epik asarda voqea va syujet markazda turadi. Biroq adabiyotda shunday asarlar ham borki, ularda bu ikki yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketadi. Ana shunday asarlar liro-epik asarlar bo'lib, ularni tahlil qilishda faqat bitta yondashuv bilan

¹⁰ Sarvinoz No'monova Raximjon qizi. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me'yoriy asoslari. SCIENCE SHINE INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. Issue 12, Volume 1 April 25, 2024. 294-295 b.

cheklanib bo'lmaydi. Liro-epik asarda voqealar tasviri bilan birga muallifning ichki kechinmalari, munosabati va hissiy holati ham muhim o'rin egallaydi. Shu sababli bu turdagi asarlarni tahlil qilishda ham epik, ham lirik jihatlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Demak, liro-epik asarlarga o'tilganda, asarning syujeti va obrazlari bilan bir qatorda, unda ifodalangan hissiy holat, ruhiy kechinmalar va muallif munosabatini aniqlash tahlilning asosiy yo'nalishiga aylanadi. Bu esa liro-epik asarlarni o'rganishda o'ziga xos metodik yondashuvni talab etadi.

Liro-epik tur atamasi Aristotelning "Poetika" asarida ham, V.G.Belinskiy asarlarida ham alohida adabiy tur sifatida tilga olinmagan. Tabiiyki, ulardan so'ng yaratilgan barcha manbalarda ham bu tur hisobga olinmaydi. Uch adabiy turning epos deb nomlangan turida hikoya, qissa va romanlar qatorida doston (poema) janri ham tilga olinadi. Masalan, bizga tavsiya qilingan ilmiy adabiyotlarning barchasida shunday tasnifga duch kelamiz. U holda nega biz to'rtinchi adabiy tur sifatida liro-epik asarlarni kiritaymiz?

Ma'lumki, har bir adabiy tur o'z shakli-shamoyiliga ega: lirika – she'riy, epos – nasr, drama esa – harakat va dialog asosida dunyoga keladi. Ham she'riy, ham nasriy yozilgan, ba'zan dialoglar ham aralashib qoladigan asarlar qaysi turga kiradi? Bu masala ko'p asrlar davomida adabiyotshunoslarni o'yantirib kelayotgan bo'lsa-da, hech kim uni ko'tarib hal qilishga jur'at etmadi. Hatto professor B.Sarimsoqov "To'rtinchi adabiy tur" sifatida liro-epik asarlarni emas, paremiya turini taklif qiladi.¹¹ Garchi adabiy turlar qatorida liro-epik tur nomi ishlatilmasa ham ayrim darsliklar, qo'llanmalar, monografiya va tadqiqotlarda bu atama ishlatib kelinadi. Biz badiiy adabiyot taraqqiyotini, undagi sifat o'zgarishlarni, janrlar mohiyati va strukturasini inobatga olib, liro-epik turni alohida ro'yxatga olishni, uni janrlar asosida tasnif etishni va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni lozim topdik. Adabiyot tarixidan yaxshi xabardor mutaxassislar uchun liro-epik tur bor va u yashaydi. Demak, liro-epik tur o'z qurilishi va tasvirlash obyektiga ko'ra boshq aguruhga xos asarlardan farq qiladi. Bu turga oid asarlar voqelikka asoslangan bo'lib, lirik chekinishlar bilan bayon qilinadi. Liro-epik turga quyidagi janrlarni kiritish mumkin:

1. Masal.
2. Ballada.
3. Doston (poema).
4. She'riy roman.

Liro-epik turning hajman eng katta, shaklan rang-barang, mazmunan boy janri she'riy romandir. She'riy roman dostoniga nisbatan kamhosil, ammo strukturasini jihatidan ildizi chuqur. Garchi she'riy roman atamasi bizga G'arbiy Yevropa va rus adabiyoti orqali (A.S.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asari) kirib kelgan bo'lsa-da, bu janr talablariga javob beradigan asarlar o'zbek adabiyotida X-XI asrlardayoq

¹¹ B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.: TAI. 2004.

dunyoga kelgan. Firdavsiyning “Shohnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” singari fanda doston sifatida qabul qilingan asarlar katta ijtimoiy-ma’rifiy voqelikka asoslangani, personajlarga boyligi, syujet qurilishining murakkabligi bilan she’riy roman deyishga arziydi. Alisher Navoiy “Xamsa”si ham to’la ma’noda she’riy roman bo’la oladi.

Liro-epik janrlar – voqelikni badiiy mujassamlashtirishda ham lirik, ham epik tasvir vositalari foydalanilgan she’riy asarlar hisoblanadi. Bu jumladagi asarlarga xos asosiy xususiyat syujetlilik bilan lirik his-tuyg’u va kechinmalarning o’zaro uyg’unlashishidir. Liro-epik shariyatning she’riy roman, doston, lirik qissa, ballada, she’riy ertak, qasida, masal singari janrlarida yaratilgan asarlar, nasriy asarlar singari, syujet oqimiga ega bo’lsa-da, ulardan lirik his-tuyg’u va kechinmalar tasviriga katta o’rin ajratilganligi bilan farqlanadi.

Liro-epik janrda kechinma va his-hayajon tasviri voqea va hodisalar tasviri bilan omuxta holda keladi. Liro-epik janrning paydo bo’lish tarixi xalq ogzaki ijodiga borib taqaladi. O’zbek xalq dostonlarining avloddan avlodga o’tib, bizga qadar yetib kelgan namunalarida nasriy matnlar bilan she’riy matnlar o’zaro uyg’un holda kelgan. Baxshilar syujet tasvirida asosan nasriy janrdan foydalangan bo’lsalar. qahramonlarning turli xatti-harakatlariga munosabat (mamnunlik, kinoya, iztirob kabi) bildirishda she’riy nutqqa murojaat etganlar. Bunday holat o’zbek yozma adabiyotining ilk namunalaridan biri – “Qissasi Rabg’uziy”da ham ko’zga tashlanadi, bu ham folklor ta’siri sifatida izohlanadi. Keyinchalik adabiy tur va janrlarning sinkretik holatdan ajralib chiqishi natijasida liro-epik janr paydo bo’lgan.

XX asrning 60-yillarida o’zbek adabiyotida yangi ijodiy yuksalish pallasi boshlanishi bilan o’zbek adabiyotiga she’riy roman, she’riy qissa singari yangi janrlar kirib keldi; doston janrining lirik doston, dramatik doston, portret doston singari yangi ko’rinishlari kashf etildi; ballada janrining tabiatida esa xalq og’zaki ijodiga xos xususiyatlar ustuvorlik qila boshladi. O’zbek she’riyatidagi mazkur yangilanish jarayoni liro-epik janr tabiatida ham o’z aksini topdi. Ayniqsa, lirik dostonning shu davr adabiyotida katta mavqe kasb etishi liro-epik janrning yangi taraqqiyot bosqichiga erishganidan darak berdi. O’zbek she’riyatidagi xuddi shu janrning ta’siri sifatida nasrda ham lirik qissalar maydonga kela boshladi.¹²

NATIJALAR

Liro-epik asarlarda ifodalangan mavzular asosan hayotiy voqealar va inson ruhiy kechinmalarining birligi asosida shakllanadi. Bu turdagi asarlarda voqea markazda turgandek tuyulsa-da, aslida voqeaning o’zi emas, balki u lirik qahramon qalbida qanday aks etayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun liro-epik asarlarda mavzu tashqi harakat bilan emas, ichki kechinma orqali ochiladi. Mumtoz adabiyotdagi liro-epik asarlarda eng yetakchi mavzulardan biri muhabbat

¹² https://uz.wikipedia.org/wiki/Liro-epik_janrlar. Ushbu maqolada O’zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

mavzusidir. Masalan, Alisher Navoiyning dostonlarida muhabbat shunchaki ikki shaxs o'rtasidagi tuyg'u sifatida emas, balki insonni ma'naviy kamolotga yetaklovchi kuch sifatida talqin etiladi. Epik voqealar rivoji davomida qahramonning muhabbat yo'lidagi sinovlari, iztiroblari va ruhiy holati lirik ohangda beriladi. 9-10-sinf darsliklarida berilgan liro-epik asarlarni o'rganishda ham aynan shu jihatlarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. O'quvchilar asardagi voqeani qayta aytish bilan cheklanib qolmasdan, qahramonning ichki holati, his-tuyg'ulari va muallif munosabatini anglashga yo'naltirilsa, mavzu chuqurroq ochiladi. Chunki bunday asarlarni tushunish uchun nafaqat epik voqealar tizimini, balki lirik kechinmalarni ham bir butun holda tahlil qilish zarur bo'ladi.

Liro-epik asarlarni tahlil qilishda ham o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o'rinda turadi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, liro-epik asarlarni tahlil qilishda umumiy nazariy tavsif bilan cheklanib qolish yetarli emas. Bu turdagi asarlarning murakkab tabiati ularni o'rganishda aniq va bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi. Shuning uchun endi liro-epik asarlarni tahlil qilishda qanday yo'llar va metodik usullar samarali natija berishini ko'rib chiqish zarur bo'ladi:

"Tizma yo'li bilan yaratilgan bo'lsa-da, muayyan miqdorda hayotiy tafsilotlar aks etgan liro-epik janrdagi bitiklar tahlili ham alohida e'tiborni talab qiladi. Nomidan ko'rinib turganidek, bu xil asarlarda epik va lirik belgilar qorishib, sintezlashgan bo'ladi. Liro-epik asarlar eposdan, kuchsizroq ko'rinishda bo'lsa-da, syujetlilik, bayon, obrazlar tizimi, real borliqning tasviri singari jihatlarni oladi. Lirikadan esa lirik qahramon, subyektiv kechinma ifodasi, nisbatan kichik hajmga intilish, she'riy nutq va psixologizm, ruhiyat ifodasi kabi xususiyatlarni o'ziga singdirgan bo'ladi.

MUNOZARA

Tahlil jarayonida liro-epik asarlardagi liriklik va epiklik xususiyatlaridagi ayirmalarni ko'rsatishga emas, balki ularning bitta badiiy olamdagi sintezi, uyg'unlashuviga e'tibor qaratish kerak. Bu kechimda lirik qahramon-bayonchi timsolini tahlil qilish hal etuvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Liro-epik asarlarda bayoniy nutq osonlik bilan hissiy-lirik nutqqa o'tib ketadi, sababi bayonchi va lirik qahramon aslida bitta obrazning ajratib bo'lmas ikki qirrasidir. Shuning uchun ham bu janrda yaratilgan bitiklarda narsalar, odamlar, voqea-hodisalar bayoni, ya'nikim, bu xil asarlarning barcha unsurlarida lirik qahramon ohangi sezilib turadi".¹³ Bundan tashqari quyida yana bir nechta tahlil usullarini qo'llash mumkin:

1. Asar tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonida oliyjanob fazilatlarini ulug'lash, adolat va xalqparvarlik, do'stlik va qahramonlik, muhabbat erkinligi va unga sadoqati asarni g'oyaviy mazmunini tashkil qiladi.

¹³ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy asar tahlili [Matn] / T.: "KAMALAK" nashriyoti, 2016. – 271 b.

Asarda Xusrav, Yosuman kabi yovuz kuchlar bilan Farhod, Shirin, Mehinbonular o'rtasidagi kurash ko'rsatiladi. Shoir Farhod, Mehinbonu, Shirinlarning barcha harakatlariga xayrixohlik bildiradi. Shohni adolatli bo'lishiga undash g'oyasini ilgari suradi.

2. Tahlilda asarning mazmuniga ham, shakliga ham e'tibor berish va mazmunning yetakchi rolini ta'kidlab o'tish zarur.

3. Asar tahlilida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog'liq holda o'rganiladi.

4. Asar syujeti va kompozitsiyasini o'rganish ham adabiy tahlilning asosiy vazifasidir. Asardagi mavzu, obraz, til, kompozitsiya, muayyan g'oyani ifodalaydi. Mavzu va g'oyaning aktualligi va xalqchiligi, mazmun va shaklning o'zaro mosligi, obrazning tipikligi va haqqoniyligi syujet va kompozitsiyaning pishiqligi, badiiy tilning tasviriyligi va ekspressivligi adabiy tahlil jarayonida aniqlanadi. Asar tahlilida tahlilning yuqoridagi u yoki bu turidan foydalaniladi. Matnni sharhlash so'z va so'z shakllari badiiy tasvir vositalarining asar g'oyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izohlanadi.¹⁴

Liro-epik asarlarda ifodalangan mavzularni o'rganish va tahlil qilish jarayonida bu asarlarning o'ziga xos tabiati va mazmun-mohiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Liro-epik asarlarda voqea bayoni bilan birga insonning ichki kechinmalari ham muhim o'rin tutadi. Shuning uchun bunday asarlarni tahlil qilishda faqat syujet yoki voqealar ketma-ketligi bilan cheklanib qolish yetarli emasligini angladim. Tahlil jarayonida asarda ko'tarilgan mavzular epik tasvir orqali berilgan bo'lsa-da, ularning asl mazmuni lirik qahramonning his-tuyg'ulari orqali ochilishini hisobga olish zarur. Muhabbat, sadoqat, vatan, adolat, inson taqdiri kabi mavzular aynan shu uyg'unlikda yanada ta'sirchan bo'lib chiqadi. Liriklik va epiklikning bir-biriga singib ketgani liro-epik asarlarning asosiy badiiy xususiyati ekanini tahlillar davomida yanada chuqurroq tushunib bordim.

XULOSA

Liro-epik asarlarni tahlil qilish metodikasi ham o'quv jarayonida ana shu xususiyatlardan kelib chiqib tashkil etilishi lozim. Avvalo, bunda asardagi voqealar tizimi aniqlanadi, so'ng esa lirik qahramonning ruhiy holati, muallif munosabati va hissiy ohang tahlil markaziga olinadi. Bunday yondashuv asar mazmunini yaxlit holda anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, liro-epik asarlarni tahlil qilishda epik va lirik jihatlarni ajratib emas, balki bir butun badiiy olam sifatida ko'rish muhim deb hisoblayman. Aynan shu yondashuv asarda ifodalangan mavzularni chuqurroq ochish va ularning badiiy qiymatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

¹⁴ O'saraliyeva G.M. Badiiy matn va uni tahlil qilish metodologiyasi. Экономика и социум" №5(108)-2 2023. 280-281 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B. Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.: TAI, 2004.
2. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy asar tahlili [Matn]. T.: "KAMALAK" nashriyoti, 2016. – 271 b.
3. Sarvinoz No'monova Raximjon qizi. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me'yoriy asoslari. SCIENCE SHINE INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. Issue 12, Volume 1, April 25, 2024. 294-295 b.
4. O'saraliyeva G.M. Badiiy matn va uni tahlil qilish metodologiyasi. "Экономика и социум", №5(108)-2, 2023. 280-281 b.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Liro-epik_janrlar. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.